


Qurilish ishlari

2017 yilning yanvar-sentyabr oylarida Xorazm viloyatida 999,8 mlrd. so'mlik qurilish montaj ishlari bajarilib, o'sish sur'ati o'tgan 2016 yilning shu davriga nisbatan 100,6 foizni tashkil etdi.

Shuningdek, yirik pudrat tashkilotlari tomonidan qurilish ishlari hajmi 112,8 mlrd. so'mlik yoki o'sish sur'ati 119,6 foizni tashkil qilib, jami qurilish ishlaridagi ulushi 11,3 foizni tashkil qildi.



Qurilish ishlarining mulkchilik shakllari bo'yicha 2017 yil yanvar-sentyabr oylarida mulkchilikning nodavlat shaklidagi qurilish tashkilotlari tomonidan 943,2 mlrd. so'mlik qurilish ishlari bajarilgan bo'lib, jami qurilish ishlaridagi ulushi 94,3 foizni tashkil qildi. Shuningdek mulkchilikning davlat mulki shakldagi qurilish tashkilotlari tomonidan 56,6 mlrd. so'mlik qurilish ishlari bajarilgan bo'lib, jami qurilish ishlaridagi ulushi 5,7 foizni tashkil etdi.

